



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

**TA'LIM NATIJALARINI BAHOLASH VA
STRATEGIYALARNI BELGILASH: MUAMMOLAR,
IMKONIYATLAR VA YECHIMLAR**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

AXBOROT XATI

<http://www.trm.uz>

2025-yil **5-noyabr**, Toshkent

“TA’LIM NATIJALARINI BAHOLASH VA STRATEGIYALARNI BELGILASH: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA YECHIMLAR”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

Konferensiya o‘tkazilish vaqti: 2025-yil 5-noyabr

Konferensiya o‘tkaziladigan joy: Xalqaro mehmonxona/Universitet, Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi.

Tashkiliy qo‘mita sizlarni “Ta’lim natijalarini baholash va strategiyalarni belgilash: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga maqolalar topshirish uchun taklif qilishdan mamnun. Ushbu konferensiya 2025-yil 5-noyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadi.

Mazkur konferensiyaning maqsadi – ta’lim sifatini oshirish va baholashning samarali yondashuvlarini ishlab chiqish, ta’lim siyosatida strategik qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar hamda tajribalarni muhokama qilish imkoniyatini yaratish hisoblanadi.

Konferensiya sho‘balari

Quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy maqolalar (tezislar) qabul qilinadi:

1. Maktabgacha va maktab ta’limida milliy va xalqaro baholash: amaliyot, muammolar va yechimlar;
2. Professional va oliy ta’limda baholash, oliy ta’limga kirish imtihonlari: joriy holat va istiqbollar;
3. O‘qituvchilarni baholash: xalqaro tajriba va milliy amaliyot;
4. Raqamli transformatsiya va ta’lim natijalarini baholash;
5. Pedagoglarning kasbiy rivojlantirish tendensiyalari.

Yuqoridagi sho‘balardan tashqari ta’lim sohasiga oid mavzulardagi maqolalar ham qabul qilinadi.

Maqola topshirish talablari

Konferensiya mavzulariga oid original ilmiy maqolalar va tahlillar qabul qilinadi. Maqolalar quyidagi talablarga mos bo‘lishi kerak:

- **Annotatsiya:** 200 so‘zdan oshmagan qisqacha mazmun (sarlavha, muallif(lar), affilatsiya, e-pochta manzili ko‘rsatilgan holda).

- **Maqola (tezis) hajmi:** kamida 3 betdan iborat bo'lishi kerak (jadval, rasm va adabiyotlar bilan birga).
- **Format:** Maqolalar Microsoft Word formatida, 10 o'lchamda Times New Roman shriftida, 1 oraliq intervalda topshirilishi kerak.
- **Til:** Maqolalar o'zbek, ingliz yoki rus tillarida topshirilishi mumkin.
- **Shablon:** Maqolani shakllantirishda ushbu [havoлада](#) keltirilgan IEEE shablonidan foydalanish talab etiladi.

Maqolalar (tezislar) quyidagi havola orqali qabul qilinadi:

<https://raqamlitalim.trm.uz/conference>

Tashkiliy qo'mitaga kechikib kelgan va talablarga javob bermaydigan maqolalar (tezislar) chop etilmaydi.

KONFERENSIYADA MAQOLA (TEZIS) BILAN ISHTIROK ETISH BEPUL!

Har bir maqola (tezis) uchun alohida DOI raqami olinadi.

Konferensiya materiallari to'plam holatida elektron va bosma shaklda nashr etiladi.

Muhim sanalar

- Maqola (tezis) topshirish muddati: **2025-yil 20-oktyabr**
- Qabul qilinganlik haqida xabarnoma: **2025-yil 30-oktyabr**
- Konferensiya o'tkazilish sanasi: **2025-yil 5-noyabr**

Aloqa uchun

Qo'shimcha ma'lumot yoki savollar uchun iltimos, konferensiya tashkiliy qo'mitasi bilan rtrimmarkaz@gmail.com elektron pochta manzili orqali bog'laning yoki bizning <https://trm.uz/> veb-saytimizga tashrif buyuring.

Biz sizning ishtirokingizni mamnuniyat bilan kutamiz.